

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DISKURSIDAGI MEDIAMATNLARNING LINGVISTIK VA USLUBIY JIHATLARI**

**Mahmudova Umida Ural qizi**

*Dotsent Qarshi davlat universiteti, Ingliz*

*tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti*

**Kirish.** Raqamli texnologiyalar davri muloqotning yangi shakllarini keltirib chiqardi va til o'z taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Internetning jadal rivojlanishi, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida yangi diskursiv amaliyotlar, uslubiy vositalar va lingvistik xususiyatlar shakllanmoqda. Raqamli texnologiyalar diskursidagi mediamatnlar bugungi kunda milliy madaniyatlar o'zaro ta'sirining, globallashuv jarayonlarining va shu bilan birga, milliy o'zlikni saqlab qolish istagi namoyon bo'lishining o'ziga xos maydoniga aylandi.

Raqamli texnologiyalar diskursining tahlili zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu diskursning lingvistik, grafik va uslubiy jihatlari nafaqat zamonaviy til taraqqiyotining tendensiyalarini aniqlashda, balki jamiyatning madaniy-semiotik evolyutsiyasini tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar, bloglar va boshqa raqamli platformalardagi mediamatnlar orqali turli madaniyatlarga xos kommunikativ strategiyalarni, lingvistik o'ziga xosliklarni va uslubiy yondashuvlarni kuzatish, qiyoslash va tavsiflash mumkin.

O'zbek va ingliz tilidagi raqamli texnologiyalar diskursining qiyosiy tahlili ikki turli madaniy olam va lingvistik an'anening raqamli muhitdagi ifodalanishini ochib beradi. Bunda ingliz tili global texnologik diskursning asosiy tili bo'lib qolayotgan bir paytda, o'zbek tili raqamli texnologiyalar sohasidagi o'z milliy diskursiv fazosini shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu ikki tilning raqamli muhitdagi o'zaro munosabati o'ziga xos "lingvistik ekologiya"ni yaratib, globallashuv va milliy o'zlikni saqlash o'rtasidagi muvozanatni aks ettirmoqda.

Raqamli texnologiyalar diskursida grafik jihatlar, sintaktik tuzilishlar, morfologik va leksik xususiyatlar, shuningdek, uslubiy vositalarning qo'llanilishi har bir madaniyatning

kommunikativ, lingvistik va madaniy qadriyatlarini namoyon etadi. Xususan, o'zbek tilidagi mediamatnlarda milliy qadriyatlar, jamoaviylik, tantanavorlik va rasmiylik kabi xususiyatlar ustuvorlik qilsa, ingliz tilidagi medimatnlarda individuallik, aniqlik, faktlarga asoslanganlik va professionallik kabi jihatlar ko'proq namoyon bo'ladi.

O'quvchi e'tiborini jalb qiladigan g'ayrioddiy mediamatn formati: "Raqamli texnologiyalar vaziri Sh. Shermatov Yevropa Ittifoqining Xalqaro hamkorlik bo'yicha komissari Yozef Sikela bilan uchrashdi. Uchrashuvda Yozef Sikela O'zbekistonning ko'p jabhalarda jadal rivojlanish yo'lida erishayotgan, aholi turmushini sezilarli darajada yaxshilagan yutuqlari, jumladan, raqamli texnologiyalar sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni yuqori baholadi" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Hattoki hozir bunday holatda bo'lsangiz ham, o'zingizga yomon ko'rinishga yo'l qo'y mang" (IT Park UZ, Elektron resurs); "O'z navbatida, vazir Sh.Shermatov vazirlikning asosiy maqsadlari, yaratilgan imkoniyatlarga to'xtalib o'tdi" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs);

Muallifning kayfiyatini yetkazish uchun emotsikonlardan foydalanish: "IT Park Tashkent amoCRM jamoasi bilan birgalikda O'zbekistondagi birinchi yirik biznes konferensiyasini tashkil etdi" (IT Park UZ, Elektron resurs), "Mazkur izohli lug'atni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad AKT sohasi xodimlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari hamda barcha qiziquvchilar foydalanilishi mumkin bo'lgan terminologik bazani shakllantirish" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xalqaro IT-sertifikat olish uchun sarflagan xarajatlarining 50 foizgacha bo'lgan qismini kompensatsiya asosida qaytarib olishlari mumkin" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs);

Sarlavhalar va nomlarda muhimligini bildiruvchi kapitalizatsiyadan foydalanish: "RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR — KORRUPSIYA KUSHANDASI", "O'ZBEKISTONDA GENDER RAQAMLI TAFOVUTNI BARTARAF ETISH" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "YANGI XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI" (IT Park UZ, Elektron resurs);

Sintaktik jihatdan mediamatnlar quyidagicha qayd etiladi:

Gap oxirida yoki hatto gap o'rtasida uning intonatsiyasini yetkazish maqsadida undov va so'roq belgilarining takrorlanishi: "Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda!!!" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Ushbu konferensiyada 15 dan ortiq turli xil zamonaviy IT-yo'nalishlar va mavzular bo'yicha taniqli spikerlar so'zga chiqishdi va professional tajribalari bilan o'rtoqlashishdi!!" (IT Park UZ, Elektron resurs), "Sizningcha, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishning eng samarali usuli qanday???" (IT Park UZ, Elektron resurs);

Me'yordan chetga chiqadigan tinish belgilaridan tez-tez foydalanish: "Bu ##yangi xalqaro talablarga## e'tibor bering" (IT Park UZ, Elektron resurs), "Do'stlar,,, sizlar bilan #Axborotxavfsizligi# yangi kursi haqida ma'lumot ulashishdan xursandman" (Kiberxavfsizlik markazi, Elektron resurs);

Bir turdag'i gap bo'laklarini turlicha yaratish maqsadida ishlatish: "CompTIA IT Fundamentals, CompTIA A+, CompTIA Network+, CompTIA Security+, CompTIA Cloud+ sertifikatlarini olish imkoniyatiga egasiz" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Markaziy Osiyo mamlakatlarini yaxshiroq bog'lashga, hamkorlik va iqtisodiy almashinuvni rivojlantirishga xizmat qiladi" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Hashamat, qulaylik, nafislik va juda maqbul narxlar - UzInnovation mahsulotlarini shunday qisqacha tavsiflash mumkin" (IT Park UZ, Elektron resurs).

O'rganilayotgan barcha raqamli texnologiyalar diskursidagi mediamatnlarning morfologik darajadagi umumiyligini xususiyati:

Blog muallifini va uning o'quvchilarini psixologik darajada yaqinlashtiruvchi shaxsiy olmoshlarning ishlatilishi: "Biz O'zbekiston Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida faoliyat olib boramiz" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Siz ushbu sertifikatlarni olish orqali xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo'lasiz" (IT Park UZ, Elektron resurs).

Hozirgi zamonda va boshlang'ich shaklda fe'llarning bo'limlar nomlarida tez-tez ishlatilishi, bular obunachini mahsulotni sotib olishga yoki hech bo'limganda postni o'qib tugatishga undaydi: "IT kurslarda o'qing va sertifikatga ega bo'ling", "Xalqaro

sertifikatlarni qo'lga kiriting!", "IT sohasida karyerangizni boshlang!" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Raqamli texnologiyalardan qanday foydalanish mumkin?" (IT Park UZ, Elektron resurs).

Globallashuvning rivojlanishi jarayonini aks ettiruvchi ingliz tilidan o'zlashmalarning dolzarbligi: "Raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash, axborot texnologiyalari parkini (IT-Park) yaratish uchun yetarli darajada yaxshi tayyorlangan internet-infratuzilmasi, va ayni paytda hududlardagi raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha xatti-harakatlari ildamligi, raqamli to'lov xizmatlarining takomillashtirilishi va milliy marketpleyslari, shu o'rinda, ikkita davlat marketpleyslari - tradeuz.com hamda unisavdo.uz yaratilishi – shular jumlasidan" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Bugungi kunda zamonaviy fintech-xizmatlar, emittentlik, ekvayring, protsessing, to'lov tizimlarining dasturiy interfeyslari (API) kabi yo'naliishlarda loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs).

Tahlil qilingan material shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan raqamli texnologiyalar diskursidagi bloglarida ishlatiladigan lug'at, eng yorqin tarzda unifikalashuv va globallashuv jarayonining kuchayishini aks ettiradi, chunki ko'pchilik neologizmlar, slenglar va professionalizmlar ingliz tilidan kirib kelgan: "IT-Park", "AKT sohasi", "internet-infratuzilma", "raqamli ko'nikmalar", "raqamli to'lov xizmatlari", "marketpleys", "elektron tijorat", "ekotizim", "raqamli iqtisodiyot", "raqamli transformatsiya", "tradeuz.com", "unisavdo.uz", "fintech-xizmatlar", "emittentlik", "ekvayring", "protsessing", "API".

Raqamli texnologiyalar bloglarida qo'llaniladigan barcha badiiy ifoda vositalari orasida epiteti ustunlik qiladi, ular o'quvchiga yaratilayotgan tasvirni to'liqroq tasavvur qilishga va blog muallifining aytilganlarga bo'lgan munosabatini tushunishga yordam beradi: "Zamonaviy AKTni jamiyatning barcha sohalariga joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, jahon axborot jamiyatiga kirish, hamda jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Raqamli texnologiyalar vaziri birinchi

o'rinosbosari O. Pekos tadbirning kirish qismida, Raqamli texnologiyalar vazirligi elektron tijoratning rivojlanish bo'yicha vakolatli davlat organi ekanligi, elektron tijorat subyektlariga yurtimizda yaratilgan shart-sharoitlar, shunigdek, raqamli bank va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari bo'yicha ma'lumot berdi" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs).

Raqamli texnologiyalar bloglarida taqqoslash kabi usul ham qo'llaniladi, u orqali muallif o'quvchi balki oldin taxmin qilmagan yangi aloqalarni ko'rsatadi: "Raqamli texnologiyalar sohasida O'zbekiston xuddi yangi O'zbekistondek jadal rivojlanmoqda" (IT Park UZ, Elektron resurs), "Joriy yilning 15-16 sentabr kunlari ko'hna va hamisha navqiron Samarqand shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammiti o'tkaziladi" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "Raqamli texnologiyalar bu zamonaviy dunyodagi ko'prikdir" (IT Park UZ, Elektron resurs). O'rganilayotgan barcha raqamli texnologiyalar bloglarida medimatnning ifodalilagini kuchaytirish va qabul qiluvchiga ishontirarli ta'sir ko'rsatish uchun badiiy ifodalilikning fonetik vositalari qo'llaniladi:

Alliteratsiya: "Raqamli rivojlanish – rivoj ruhi" (IT Park UZ, Elektron resurs), "Texnologiyalar tezligida taraqqiyot topmoqda" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs);

Assonans: "O'zbekiston o'sish yo'lida" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs), "IT-ta'lim tizimi hamda rezident-kompaniyalar uchun mavjud imtiyozlar haqida bat afsil so'zlab berdi" (IT Park UZ, Elektron resurs).

Raqamli texnologiyalar blogerlari ifodani yetkazish va o'quvchiga ta'sir ko'rsatish maqsadida sintaktik badiiy ifoda vositalaridan ham foydalanadilar, masalan:

Anafora blog mediamatnidagi muhim ma'lumotni ta'kidlash uchun ishlataladi: "Raqamli texnologiyalar sohasida belgilab berilgan strategiyalaridan keyin ko'pgina ishlar amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar sohasida joriy yil oxiriga qadar IT xizmatlar eksporti hajmini 100 mln dollarga yetkazish niyatidamiz" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs);

Antiteza, ayniqsa blogerning tasvirlanayotgan narsaga bo'lgan haqiqiy munosabati jamiyatda qabul qilingan fikrga mos kelmaydigan hollarda: "Olis hududlarda Internet yo'q, ammo kelgusida uyali aloqa tarmoqlari bo'ladi" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs);

Bog'lovchilarni ko'p qo'llash detallar, elementlar, harakatlar va hokazolarning ko'pligini ko'rsatadi: "Xalqaro hamkorlik va raqamli transformatsiyaga ko'maklashish va raqamli bilim hamda ko'nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish borasida muhim chora-tadbirlar ko'rilmoxda" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs);

Bog'lovchisiz konstruksiyalar muallif tasvirlayotgan obyektning hodisalar, detallar va hokazo bilan to'yinganligini, jarayonning davomiyligini ko'rsatmoqchi bo'lgan hollarda qo'llaniladi: "Shuningdek, uchrashuvda Raqamli bo'linishni tartibga soluvchi eng yaxshi amaliyotlar va dunyoni bog'lash uchun tashkilotlararo hamkorlik, Raqamlashtirishda Gender tengligi: asosiy to'siqlar va oldinga yo'llar, O'zbekistonda gender masalalarini hal etish uchun ayollarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi" (Raqamli texnologiyalar vazirligi, Elektron resurs).

Ammo sintaksis, leksika, grafika va boshqa darajalarda muayyan lingvomadaniyat yoki bir nechta lingvomadaniyatga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud. Masalan, grafik darajada xorijiy raqamli texnologiyalar mediamatnlarida emotikonlar shaxsiy veb-saytlarga qaraganda Instagram platformasidagi bloglarda ko'proq ishlataladi, o'zbek tilidagi blogsferada esa emotikonlarni barcha ko'rinishdagi manbalarda uchratish mumkin.

Rang palitrasini tanlash ko'plab omillarga bog'liq: tashkilot, auditoriya darajasi va yoshi, blogerning shaxsiy yo'nalishlari, o'quvchilar e'tiborini jalb qilish istagi. O'zbekistondagi raqamli texnologiyalar sohasiga oid rasmiy mediamatnlarda ko'k, yashil va oq ranglar uyg'unligida milliy elementlar bilan bezatilgan dizayn ustunlik qiladi.

**Xulosa.** Ba'zi mediamatnlar o'z milliy identikligini ko'rsatish uchun milliy ranglar va an'anaviy o'zbek naqshlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtiradi. Tadqiqot jarayonida ajratib ko'rsatgan badiiy ifodalilik vositalarining o'ziga xosligiga ham e'tibor

qaratish kerak. O'zbek tilidagi raqamli texnologiyalar diskursida "ko'prik", "rivojlanish", "taraqqiyot", "yuksalish" kabi metaforalar ko'p uchraydi: "Markaziy Osiyo mamlakatlarini yaxshiroq bog'lashga", "Axborot ko'prigi", "Raqamli transformatsiya ko'prigi", "Texnologiyalar asrining rivojlanish bosqichlari" kabi. Bu o'zbek milliy mentalitetida rivojlanish va bog'liqlik tushunchalariga katta ahamiyat berilishini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, milliy qadriyatlarning aksi o'zbek tilidagi raqamli texnologiyalar diskursida yaqqol namoyon bo'ladi. Blogger medimatnlari va vizual materiallarda milliy an'analar, zamонавија texnologiyalar, milliy iftixor, madaniy identiklik kabi tushunchalar uyg'unlashgan. Masalan, Samarqand sammitiga bag'ishlangan pochta markasining taqdimoti orqali ham zamонавија texnologik rivojlanish, ham milliy madaniy meros, ham xalqaro hamkorlik g'oyalari ifodalangan.

Shunday qilib, bajarilgan ishlar jarayonida shuni ta'kidlash mumkinki, polikod-polimodal medimatn sifatida raqamli texnologiyalar bloglari til dunyosi tasvirini, shuningdek, jamiyat madaniy qadriyatlari va ma'lum bir inson qadriyatlarini aks ettiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Digital Technologies Ministry of Uzbekistan. (2023). Official electronic resource. Retrieved from <https://digital.gov.uz>
2. IT Park UZ. (2023). Social media presence and digital communication. Retrieved from <https://it-park.uz>
3. Fairclough, N. (2013). Critical discourse analysis: The critical study of language. Routledge.